

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.I.Nurmatova

Talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinishi 107

D.B.Mahometova

Use of information technologies in education..... 112

M.Norinov

Bo'lajak texnik mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini multimedia vositalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi..... 115

G.T.Hojikarimova

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida 119

X.M.Jo'rayev

Kimyo o'qituvchilarining o'zini-o'zi rivojlantirish omillari 123

N.B.Odilxo'jazoda

Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari..... 128

B.T.Tojibayev, S.S.Isokov

Globallashuv kontekstida – ta'lim 132

D.Q.Oxunova

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari..... 136

N.E.Yuldasheva

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari 140

B.X.Baydjanov, Y.E.Mamatova

Boshlang'ich ta'limda mediamadaniyat va texnoetikani o'qitish texnologiyasini takomillashtirish..... 144

FALSAFA**Б.С.Ганиев**

Социально-политические факторы повышения предпринимательской культуры в Узбекистане 150

M.D.Pardaeva

Uchinchi renessans poydevorini yaratishda Navoiy Naqshbandiyona g'oyalarining ahamiyati..... 156

Z.P.Nadirova

Intuitive cognition as a synergistic process..... 161

X.X.Raxmatova

Naqshbandiylik – jahoniy ta'limot 165

Z.A.Akhmedova

Donishning ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish haqidagi fikrlari tahlili..... 170

B.X.Karimov

Ong muammosining ilmiy – falsafiy va psixologik talqini..... 175

L.M.Karimova

Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida ayollarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirish mexanizmlari 180

M.M.Gulamova

Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda "Naqshbandiya Tariqati Nazariyotchisi" ta'limotining ahamiyati..... 185

O.T.Sharipova

Xojagon tasavvufiy ta'limotida "Olami Kabir" haqida 189

Sh.B.Sattorova

Mirzo Abdulqodir Bedilning inson va jamiyat haqidagi ta'limotida adolat va tenglik muammosini o'ziga xos taddiqi..... 194

B.X.Hamdamov

Boburning insonparvarlik – falsafiy qarashlari..... 200

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MEDIAMADANIYAT VA TEXNOETIKANI O'QITISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДОВАНИЯ МЕДИАЭТИКЕТА И
ТЕХНОЭТИКА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИЕ**

**IMPROVING THE TECHNOLOGY OF TEACHING MEDIA ETIQUETS AND
TECHNOETHICS IN PRIMARY EDUCATION**

Baydjanov Bekzod Xaitboyevich¹

¹Farg'ona davlat universiteti, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif fakulteti dekani,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(Phd)

Mamatova Yodgoroy Erkin qizi²

²Farg'ona davlat universiteti ta'lif tarbiya nazariyasi (boshlang'ich ta'lif) yo'nalishi
magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchi yoshlar uchun hozirgi zamonda zarur hisoblangan mediamdaniyat va texnologik qurilmalar bilan ishlash etikasi, informatika va axborot texnologiyalarini boshlang'ich ta'lifda fan sifatida o'qitilish zaruriyati bayon qilingan. Maqolada internet imkoniyatlari, uning ta'limgagi ahamiyati tahlil qilindi, o'quvchilarga xavf solishi mumkin bo'lgan onlayn zo'ravonliklar hamda tahdidlardan himoya qilish maqsadida amalga oshirilishi tavsiya etilgan samarali uslubiy usullar va metodik tavsiyalar berildi. Bunda izchillik va samaradorlikka erishish uchun ota-onha hamkorligini yo'iga qo'yish, o'qituvchi va o'quvchining texnologik kompetentligini shakllantirishning ahamiyati ko'rib chiqildi, bu borada ma'lum ilmiy-metodik tavsiyalar hamda takliflar ishlab chiqildi.

Аннотация

В статье подчеркивается необходимость преподавания информационных технологий как предмета в начальном образовании, медиа этикета и этики использования информационных устройств, что считается обязательным в условиях стремительного развития. В данной статье анализируются возможности Интернета, его роль в обучении, предлагаются эффективные методические приемы и методические рекомендации с целью защиты учащихся от онлайнового насилия и угроз. Для достижения системности и эффективности рассмотрена важность сотрудничества родителей, повышения технологической компетентности учителей и учащихся, в связи с чем разработаны определенные научно-методические рекомендации.

Abstract

The article emphasizes the necessity of teaching information technologies as a subject in primary education, media etiquette and ethics of utilizing information devices that is considered to be compulsory in this fast paced development. In this article opportunities of internet, its role in teaching is analyzed, effective methodological techniques, and methodical recommendations are suggested with the aim of defending students from online violence and threat. In order to attain consistency and efficiency, the importance of parental cooperation, improvement of teachers' and students' technological competence have been considered, in regard certain scientific-methodical recommendations have been drafted.

Kalit so'zlar: mediamdaniyat, texnoetika, kompetentlik, axborot texnologiyalari, kiber tahdid

Ключевые слова: медиаэтикет, техноэтикет, компетентность, информационные технологии, кибер-угроза.

Key words: media etiquette, techno ethics, competence, information technologies, cyber-threat

KIRISH

Jahon tajribasidan ma'lumki, erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari hamda mediatexnologiyalarning har tomonlama shiddat bilan takomillashib borishi texnoetikani bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanishi uchun turki bo'ldi. Xususan, texnologik qurilmalar va global tarmoq insonlar hayot tarzi, ta'lif olish va mehnat jarayonlari, oilaviy munosabatlariga o'zining ta'sirini ko'rsatmay qolmadi, natijada bugungi kunda axborot almashuvining intensivlashganligi, axborot makonlarining o'zlariga xos mafkuraviy poligonlarga aylanib borish holatlari ayniqsa, ta'lif tizimida muayyan xavf-xatarlarni keltirib chiqarayotgani sir emas. Shu bois, o'sib kelayotgan yosh avlodni ular kichik maktab yoshidaligidayoq zararli axborotlar ta'siridan, axborot xurujlarining turli ko'rinishlaridan himoya qilish, o'quvchi yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish zarur hisoblanib, bu borada jahoning bir qator rivojlangan mamlakatlari, jumladan

PEDAGOGIKA

Rossiya, Amerika, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa bir qator mamlakatlarda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda, axborot hajmi, uni saqlash, qayta ishslash va uzatishning texnologik imkoniyatlari oshib borishi axborotlashgan jamiyatning barcha tarmoqlaridan foydalanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratib berdi. Bu esa o'z navbatida texnologik qurilmalarning, mediatexnologiya va innovatsion texnologiyalarni ta'lif tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida keng qo'llanilishiga sabab bo'ldi va buning natijasida ta'lif tarbiya jarayonida ham axborot tizimlarining xavfsizligini ta'minlash, bu borada mavjud tizimlashtirilgan texnologiyalarni yanada takomillashtirish masalalarini keltirib chiqarmoqda.

Yurtimizda esa axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning asosiy manbayi bu O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi hisoblanib bu borada ko'plab tadqiqotchilar ish olib bormoqdalar. Lekin, bolalar ongini zamon va texnologiyalar bilan hamo-hang tarzda o'sib borayotganini, natijada turli xil axborot xurujlari, ularning ma'nani va jismonan rivojlanishiga salbiy ta'sir etayotganini hisobga olgan holda yosh avlodga texnoetikani, ular kichik maktab yoshidaligidayoq shakllantirish chora tadbirlarini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Respublikamizda S.Nishonov, U.Mahkamov, O.Musumonova, B.Adizov, D.Sharipova, Sh.Sharipov, M.Quronov, M.Bekmurodov, Q.Quronboyev, O.Jamoliddinova kabi tadqiqotchilar tomonidan mazkur masalaning nazariy asoslari o'rganib chiqilib, o'z tadqiqotlarida yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi, e'tiqodi, zararli axborotlarga qarshi ma'naviy immunitetini shakllantirish kabi masalalar tadqiq qilingan.[10].

K.Abrorxonova va Sh.B.O'riyevalar esa o'quvchilar o'rtaida mediamuhitning hamda mediamadaniyatni shakllantirishning psixologik imkoniyatlari,boshlang'ich ta'lilda zamonaviy ta'lif yondashuvlari asosida ta'lif tarbiya berish borasida ilmiy izlanishlar olib borishgan.[4].

U.L.Yoziyeva o'zining pedagogika fanlari dissertatsiyasi avtoreferatida zararli axborotlarning bolalar jismoniy va ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'siri,o'quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning takomillashtirilgan modeli, axborotni himoya qilishning zamonaviy yo'llarini yoritib bergen [10].

Xorijlik olimlar ham ushu mavzu naqadar dolzarb ekanligi, uning klassifikatsiyasi, kiber-hujumlar, tahdidlarni oldini olish haqida o'zlarining izlanishlarida yoritib o'tganlar. Xususan Whitman va Mattford o'zlarining "Axborot xavfsizligi tamoyillari" kitobida axborot xavfsizligiga bee'tibor bo'lmaslik lozimligi, aks holda sodir etilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy tahdidlar haqida so'z yuritadilar[13]. Matabning, ayniqsa maktab o'quvchilarining ushu hujumlarning qurboni bo'lishi, ular jinoyatchilarning nishonida ekanligi haqida Katzan 2016-yilda tahrirdan chiqqan Axborot xavfsizligi ilmiy tadqiqot jurnalida ta'kidlab o'tgan. Hamda uning psixologik-fiziologik ta'sirlarini ko'rib chiqqan [8].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zararli axborotlar xavfidan himoya qilish muammosi ko'plab soha vakillari tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, hozirgi axborot asri o'quvchilarga 1-sinfdan to 4-sinf darsliklarida kelgusida xavf solishi kutilayotgan axborot xurujlari, texnologik qurilmalardan foydalanish etikasi, turli axborotlarga bo'lgan mafkuraviy immunitet haqidagi bilimlarni dars mashg'ulotlari davomida berilib borilishini taqozo etmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi axborotlar asri insoniyat boshidan kechirgan fuqarolik urushlari, yadro-qirg'in qurollari, tabiiy ofatlardan ko'ra ko'proq salbiy oqibatlar, moliyaviy inqirozlarga sabab bo'lishi mumkin. Kiber-xavfsizlik biz uchun hamda keyingi yosh avlod uchun muhim masala. Jinoyat quroli bu internet va eng so'ngi raqamli texnologiyalar bo'lsa, nishondagilar istalgan inson, firma yoki korxona va hattoki davlat bo'lishi mumkin. Afsuski, biz buni to'laligicha anglab yetishga ulgurganimizcha yo'q! "Google qidiruv tizimiga bo'lgan hujumlardan bilamizki, nafaqat hukumatlar, balki xususiy kompaniyalar ham bu tahdid oldida ojiz. Global iqtisodiy integratsiya bizga ko'p eshiklarni ochib berdi, jinoyatchilarga esa imkoniyatlarni ", - deydi Amerika Qo'shma Shtatlari Federal Qidiruv Byurosi (FBR) rahbari Robert Myuller [8]. Demak, bu hozirgi zamonamizning global muammolaridan biri. Fikrimning yana bir dalili sifatida Amerikaning sobiq prezidenti Barak Obamaning so'zlagan nutqidan bir parchani keltirib o'tishni joiz deb bildim. Uning fikricha kiberxavfsizlik XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biri. Yadro va ommaviy qirg'in qurollaridan hech qolishmaydi.

AQSHda kompyuter jinoyatchiliga qarshi kurashish maqsadida 1996-yil “Kompyuterlarni qo'llash orqali firibgarlik va suistemol qilishlar to'g'risida” gi federal qonun qabul qilingan va ushbu turdag'i jinoyatchilik bilan kurashish bo'yicha Federal Tekshiruv Byurosi (FTB) tashkil etilgan. Shu yillardan buyon ushbu davlat mamlakat xavfsizligiga yangi tahdidining va axborot qurolini kuchini anglab yetib, zaruriy choralarni amalga oshirib kelmoqda[9].

Mamlakatimizda esa ushbu muammoga barham berish borasida, aynan boshlang'ich sinf o'quv rejalariga o'zgartirish kiritilgan bo'lib, bunda umumiy o'rta ta'lif maktablari uchun 2023-2024-o'quv yili mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'lifi vazirining 2023-yil 27-aprelda 08-740-sonli buyrug'i qabul qilindi. Bunda boshlang'ich ta'lifda ham informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitilishi to'g'risida qaror qabul qilindi.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fani O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2022-yil 10-oktabrdagi “Zamonaviy mакtab darsliklarini tajriba-sinovdan o'tkazish hamda maktab ta'lifi sifatini oshirish to'g'risida”gi 14-sonli bayoni, Prezident Administratsiyasining 2023-yil 27-apreldagi 08-740-sonli xatiga muvofiq “Informatika va axborot texnologiyalari” fani 1-sinfdan boshlab o'qitish belgilandi.

Mazkur bayon ijrosini ta'minlash maqsadida 2023-2024-o'quv yilidan 1-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o'qitilishi yo'lga qo'yiladi.

1-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga asoslanganligi sababli mazkur fan boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

Unga ko'ra, 1- va 5-8-sinflarda haftasiga 1 soatdan, 9-11-sinflarda haftasiga 2 soat o'qitiladi.[2].

Bunda, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan boshlang'ich sinf o'qituvchilari 1-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o'qitadi.

Ushbu qaror hozirgi vaqtida juda o'rinnlidir. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgani insonlar tarbiysi hamda dunyoqarashining o'zgarishiga olib keladigan eng katta omillardan biri hisoblanib bormoqda. Sh.F.Shodiyeva Zamonaviy ta'lifda yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlash nomli maqolasida, — Bugungi kunda Internet va axborot texnologiyalari inson hayotining ilk bosqichidanoq uning ajralmas qismiga aylanib qolgani bois, bolalarni ularning xavfidan himoyalash masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va mazkur muammo global miqyosda hal etilishi taqozo etiladi, — deb bejizga aytmagan [11].

B.K.Egamkulovich yoshlarni medialardan to'g'ri foydalanishga o'qitishdagi samarali uslubiy usullarini quyidagi asoslar bo'yicha tasniflagan:

1. Tarbiyaviy ishlar turlari bo'yicha (axloqiy, vatanparvarlik, ekologik, oilaviy va boshqalar). Bu tasnifni fan olimi Z.Tella ta'biri bilan aytganda, “mediaxabarlarini fanlararo va ko'p tarmoqli xususiyatga ega bo'lishi” bilan murakkablashadi [12]. Masalan, mакtab o'quvchilarini axloqiy jihatdan tarbiyalash masalalarini hal qilish maqsadida medianing badiiy yoki multfilmлarni namoyish etish orqali ulardag'i estetik tarbiya imkoniyatlarini kengaytiramiz, chunki biz san'at asarini axborot manbai deb hisoblaymiz.

2. Global kompyuter tarmoqlari va boshqa ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar bo'yicha. Axborotdan foydalanishning turli xil imkoniyatlarini izlash va joriy etish yoshlarga media sohasi bilan yaxshiroq tanishishiga va ta'lif muammolarini samarali hal qilish imkonini beradi [5].

Bolalarning asosiy vaqtleri maktabda o'tishini hisobga olgan holda, global tarmoq orqali texnologik qurilmalar vositasida tarqaladigan “zamonaviylikning timsoli” sifatida talqin qilinuvchi turli yod g'oyalar, behayolik, terroristik, jinoyatchiliklarga targ'ib qiluvchi materiallardan yosh avlodni himoya qilish, ular turli kiber-jinoyatchilar qurbaniga aylanib qolishini oldin olishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

1. Axborot xavfsizligi tamoyillarini tartibga soluvchi mahalliy normativ hujjalarni ishlab chiqish va tasdiqlash. Maktab hududida uyali aloqa vositalaridan foydalanish qoidalari to'g'risida o'quvchilarga tushuncha berish.

2. Diniy ekstremistik, terroristik mazmundagi, inson ongini zaharovchi kanallarni pedagog xodimlar tomonidan qat'iy cheklanishi.

PEDAGOGIKA

3. Direktorning buyrug'i asosida global tarmoqqa xavfsiz kirish uchun mas'ul xodimi tayinlanishi, internet makonidan bexatar foydalanish ko'nikmalarini egallash maqsadida o'qituvchilarni malaka oshirish kurslariga yuborish.

4. O'quvchi yoshlarni xavfsizligini ta'minlash maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqish, otanonalar bilan profilaktika ishlarini o'tkazish rejasini ishlab chiqish, internet ma'lumotlar saqlanuvchi saytlarga, maktabning rasmiy web-saytlariga internetdan to'g'ri foydalanish haqida ko'rsatmalarni berib borish, taqiqlangan saytlar ro'yxatini berish.

5. O'quvchilar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, axborot texnologiyalari, axborot xavfsizligi bilimlarni berib borish maqsadida bepul o'quv kurslarini tashkil qilish, buni esa informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilari zimmasiga yuklash, va ularni muntazam nazorat qilish kabilarni kiritishimiz mumkin [14].

Yoshlarni ma'nан yetuk, zamonaviy, yangiliklarga intiluvchan tarzda tarbiyalash asosan boshlang'ich ta'lim pedagoglari zimmasiga tushadi. Chunki bola boshlang'ich ta'limda fan haqida ilk tushunchalarga ega bo'ladi, zararli axborotlarga qarshi ma'naviy immuniteti, uning shaxsiyati, xarakteri ushbu davrda shakllanib boradi. O'zbekiston yoshlarini dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim olib kelayotgan tengdoshlari bilan raqobatbardosh qilib tarbiyalash uchun quyidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- zamonaviy texnologik qurilmalarni dars jarayonida keng qo'llash,
- bolani ta'lim olish ichki motivlarini kuchaytirish,
- mustaqil izlanib o'zi uchun darsdan tashqari qo'shimcha manbalardan foydalanib, bilimini boyitib borishi kabilar.

Internetdan to'g'ri foydalanish bolani imkoniyatlarini kengaytiribgina qolmasdan, o'zlarini ustida ishlashlari uchun, jahonning fan borasidagi eng so'ngi yutuqlari, izlanishlaridan boxabar bo'lishlari uchun xizmat qiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra internet foydalanuvchilarining uchdan bir qismini 18 yoshdan kichik bolalar tashkil etadi, va har yarim soniyada bir bola birinchi bor internet tizimiga kiradi. Bu esa barchani hushyorlikka chorlaydi albatta! 8-fevralda jahon miyosida nishonlanadigan Xavfsiz internet kuni munosabati bilan Toshkentda bolalarni onlayn zo'ravonlikdan himoya qilish maqsadida UNICEF va ichki ishlar Vazirining Kiberxavfsilik markazi hamkorligida tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda Parlament a'zolari, Oliy Majlisning bola huquqlari bo'yicha vakili, davlat organlari va jamoat tashkilotlarining vakillari ishtirok etdilar.

"Internetdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va axborot olishdagi tengsizlikni qisqartirish barcha bolalar va yoshlar muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini egallashlari uchun juda muhimdir. Afsuski, barcha afzalliklariga qaramay, Internet onlayn suiste'mol, ekspluatatsiya va noto'g'ri ma'lumotlarni tarqatish bilan ham bog'liq. Shu bois ham onlayn, ham real hayotda zo'ravonlikka qarshi kurashning eng yaxshi yo'li bu masalalarni hal qilishda tizimli yondashuvadir", dedi UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade. "Bolalarga nisbatan zo'ravonlik masalasini hal etish uchun ota-onalarning bilim va ko'nikmalarini yaxshilash, bolalarning xabardorligini oshirishni, ijtimoiy xizmatlar va bolalarni himoya qilish sohasidagi kadrlar salohiyatini takomillashtirish hamda kuchli qonunchilikni hamda institutsional bazani, jumladan ma'lumotlarni to'plash va boshqarish tizimini talab qiladi", deya ta'kidladi u.

"Hozirgi globallashuv asrida yoshlarning dunyoqarashi kun sayin o'zgarib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri ularning zamonaviy axborot kommunikasiyalaridan faol foydalanishi, dunyoda ro'y berayotgan yangiliklar, voqeа-hodisalardan tez xabardor bo'lishi bilan ham izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, aholisining katta qismini yoshlar tashkil etuvchi mamlakatimizda ularga nisbatan kibertahdidlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish muhim ahamiyat kasb etadi", dedi Ichki ishlar vazirligi Kiberxavfsizlik markazi boshlig'i Bexzod Mamadjanov [15].

Ushbu hamkorlikda asosan virtual olamda va haqiqiy hayotda kuzatilayotgan bolalarga nisbatan zo'ravonlik, buzg'unchi g'oyaga ega bo'lgan "ommaviy madaniyatni" targ'ib qilinishi, kiberjinoyatchiliklarga qarshi kurashishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar sirasiga idoralararo hamkorlikni yaxshilash, fuqarolik jamiyatni tashkilotlarining faol ishtirokini, ota-onalar va mutaxassislarining bolalarni qo'llab quvvatlash va kiber-tahidlardan himoya qilish bo'yicha ularning

xabardorliklarini oshirish kabilar tavsiya qilindi [15]. Bizning pedagog sifatidagi vazifamiz ushbu masala o'z yechimini topishida tizimli ishlar olib borish, uni nazoratga olish hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridaqlardan kelib chiqqan holda biz quyidagilarni xulosa sifatida keltirishimiz mumkin:

1. Olib borilgan izlanishlar shuni ko'ssatmoqdaki, hozirda yosh avlod duch kelayotgan zararli axborotlar, ular natijasida yuzaga kelayotgan muammoli vaziyatlar ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, buning yechimi ta'lif tizimi bilan bog'liqidir. Bu esa o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini hamda texnologik kompetensiyalarini timizli takomillashtirishni taqozo etadi.

2. "Sog'lom jamiyat sog'lom oiladan boshlanadi" – deganlaridek muammoni bartaraf etish, o'quvchilar darsdan tashqari faoliyatlarini ham nazoratga olish, ularni zararli axborotlardan himoyalashda amalga oshiriladigan ishlarning izchilligini va tizimliligini tashkil etish borasida ota-onha hamda pedagog hamkorligini yo'iga qo'yish ahamiyatlidir.

3. Pedagogik ta'lif jarayonida o'quvchilarni milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan axborotlarni aniqlashtirish, ularda ma'naviy immunitetni kamol toptirish lozim.

4. O'quvchi yoshlar faoliyatini maqsadli tashkil etish, ularga kun tartibiga rioya qilishni singdirish, bo'sh vaqtlarini bekorga sovurmaslikka o'rgatish orqali yosh avlodni zararli axborotlar tahdididan himoya qilish tizimini takomillashtirish yana bir tavsiya sifatida berilishi mumkin.

5. O'quvchilarni himoyalashda ularga mediamadaniyatni shakllantirish uchun qo'l keladigan didaktik animatsion yoki kitob ko'rinishidagi vositalar hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, buni boshlang'ich ta'lifda ham butun bir fan sifatida axborot texnologiyalari mutaxassislari tomonidan o'qitilishi, har bir muktab ta'lif tizimida doimiy ishlab turuvchi, va o'z vaqtida samarali ta'sir ko'rsatuvchi himoyalangan axborot muhiti yaratilishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, T, 22.10.2018, 848-sun 5-modda (Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, T, 22.10.2018, No. 848, Article 5).
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va muktab ta'lifi vazirining 2023-yil 27- apreldagi 08-740-soni buyrug'i (Order of the Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan dated April 27, 2023 No. 08-740).
3. Abrorxonova K. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish texnologiyasi// International scientific journal, 2022, Vol 8,2. – B. 2103-2109. (Abrorxonova K. A. Texnology developing etiquette of working with information in primary school students/// International scientific journal, 2022, Vol 8,2. – P. 2103-2109).
4. Abrorxonova K. A., Bo'riyeva Sh. I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mediamadaniyatini shakllantirishning psixologik imkoniyatlari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023, 3(4). – B. 778- 782. (Abrorxonova K. A. , Bo'riyeva Sh. I. Psychological opportunities of improving media ethics in primary school students. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023, 3(4). – P. 778- 782.)
5. Egamkulovich B. K. Mediaata'lum – yoshlarni salbiy oqibatlardan himoya qilishning muhim omili// Academic Research in Educational Sciences, 2021, Vol 2. – B. 340-345. (Egamkulovich B. K. Mediaeducation – is the main factor of defending youth from unpleasant consequences// Academic Research in Educational Sciences, 2021, Vol 2. – P. 340-345.)
6. Karimov I. M. , Turg'unov N.A. Axborotxavfsizligi asoslari – Tohkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi , 2016 – 91 b. (Karimov I. M. , Turg'unov N.A. Fundamentals of information security – Toshkent: Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan, 2016 – 91 p.)
7. Karshiyev B. E. Mediaata'lum – yoshlarni salbiy axborotlardan himoya qilishning muhim omili// Academic research in educational sciences, 2020, Vol 2, No 12. — B. 240-245. (Karshiyev B. E. Egamkulovich B. K. Mediaeducation – is the main factor of defending youth from unpleasant consequences// Academic Research in Educational Sciences, 2021, Vol 2. – P. 340-345)
8. Katzan. Jr., H. Contemporary issues in cybersecurity// Journal of Cybersecurity Research, 2016, 1(1). – B. 1-6.(Katzan. Jr. H. Kiberxavfsizlikni zamonaviy masalalari// Kiberxavfsizlik tadqiqoti jurnali, 2016, 1(1). – P. 1-6.)
9. Kiber-jinoyatlar – yangi zamон, yangi muammo. <https://www.amerikaovozi.com/a/a-36-2010-03-26-voa1-93371769/807021.html> (27.03.2023). (Cyber-crimes – new world, new problems <https://www.amerikaovozi.com/a/a-36-2010-03-26-voa1-93371769/807021.html> (27.03.2023))
10. Yoziyeva U. L. Ta'lif-tarbiya jarayonida o'quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning takomillashtirilgan texnologiyasi(boshlang'ich ta'lif misoldi). Pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD)... diss. avtoreferati. – Nukus, 2018. – B.47 (Yoziyeva U. L. Improved technology to protect students from the threat of harmful information in the educational process (as an example of primary education). Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)...diss. Abstract. – Nukus, 2018. – P. 47).
11. Shodiyeva Sh. F. Zamonaviy ta'lifda yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlash/ "UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MADANIY MUHITNI YARATISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMUY-AMALIY ANJUMANI, MAY 15-16, 2023(Shodiyeva Sh. F. Providing information security of youth in modern education/ SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE OF REPUBLIC ON

PEDAGOGIKA

THEME ABOUT PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES OF CREATING CULTURAL ENVIRONMENT IN GENERAL SECONDARY SCHOOL: PROBLEMS AND SOLUTIONS, MAY 15-16, 2023)

12. Tella S. Media nykypaivan koulutuksessa. // An electronic files: <http://www.helsinki.fi/~tella>. (Tella S. Media in today's education. // An electronic files: <http://www.helsinki.fi/~tella>).

13. Whitman M. E., Mattord H. J. Principles of information security// Boston, MA: Cengage Learning, . (5th Ed), 2016.(Whitman M. E., Mattord H. J. Axborot xavfsizligi tamoyillari// Boston, MA:Cengage o'rganish . (5th Ed), 2016.)

14. <https://schollufsin.ru/uz/section/ohrana-chopami-obshcheobrazovatelnyh-shkol-osobennosti-kto-imeet/>

15. <https://xs.uz/uz/post/akhborot-manbalarida-bolalar-akhborot-khavfsizligini-taminlash-barchamizning-asosij-vazifamiz>